

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

**MAKTABGACHA TA ‘LIM TASHKILOTIDA BOLALARING IJODIY
QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.**

To’lisheva Orzigel Saidali qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi

yo’nlalishi 2- kurs magistranti

Annotasiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachi va oilada esa ota-onaning bolaning ijodiy rivojlanishiga ta’siri to’g’risida fikr yuritiladi.*

Kalit so’zlar. *Bilim, ko’nikma, malaka, qobilyat, layoqat, iqtidor, este’dod, daholik, vizualizasiya texnika teran ish, diqqat.*

Kirish. Bugungi kunda yurtimizda o’ziga xos rivojlanish, yangilanish, yuksalish davriga o’tdi. Bu yuksalishning zamirida inson va uning baxt saodati, shaxsiy qadriyatlari va manfaatlarining ustunligi hamda faravon yashashi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, yosh avlodning parloq kelajagini taminlash masalasi turadi.

Maktabgacha yoshida bolalarga ta’lim-tarbiya berib o’qitilishi, maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning zexni, ijodiy qobilyatlarini, tafakkurini rivojlanirish, takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bola zehnli, qobilyatli, ijodkor bo’lsa yurtimiz shunchalik go’zal, farovon, qudratli bo’ladi. Ko’p bunyodkorliklar kasblardan ijodkorlikni talab etadi. Shuning uchun ota-onalar maktabgacha yoshdan boshlab bolalarda ijodiy qobilyatlari bilan shug’ullananganlari ma’qul. Bu davr tinib-tinchimas, o’zgaruvchan, qiziquvchandir. Bolada ijodiy qobilyatlarini yuzaga kelishida ota-ona, tarbiyachi va muhitning ahamiyati muhim.

Asosiy qism. Ijodkorlik nima o’zi, bizga nima beradi? Ijodkorlik yangi narsa tug’ilish jarayoni sifatida tavsiflanadi – yangi va birdaniga foydali. Ushbu yangi muhit va haqiqat o’rtasidagi munosabatlarni o’rnatish uchun biz o’zimizning tasavvurimizdan foydalanamiz. Bolalarni ijodiy fikrlashga o’rgatish orqali o’zlari egallagan bilimlarini tushunish va amalda qo’llash bilan chegaralanib qolmasdan, balki muammolarni hal qilishning yangi, asl usullarini, harakatlar turlarini kashf etishga qodir bo’ladi. qobilyatlarni yaratish har qanday odamga, har qanday oddiy bolaga xos ekanligi ishonchli isbotlangan. Farqi faqat ularning yutuqlar ko’lami, hayot tajribasi va ularning ijtimoiy ahamiyatiga bog’liqdir. Ijodiy qobilyatlarini yoshligidan rivojlanirish kerak degan psixologik-pedagogik fanning xulosasi muhimdir.

Pedagog bolalarni kuzatib ulardan bazilari qobilyatli, boshqalari kamroq qobilyatli bo’ladi deb hisoblar ekan, bu gapda jon bor. Qobilyatlar deb shunday psixik sifatlarga aytiladiki, kishi ular yordamida bilim, ko’nikma va malakalarga nisbatan osonlik bilan egallab oladi va bior faoliyat bilan muffaqqiyatli shug’ullanadi. Idrok etish paytida, masalan, ranglarning tavlonishida nozik farqlarni, predmetlarning aniq

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

ko'rinishi , proporsional nisbatan, kuzatuvchanlik, absolut eshitish (musiqa bilan ishlaganda). Qobilyatlar bilim, ko'nikma , malakalardan iborat emas, garchi ular asosida rivojlanib boradi. SHuning uchun o'qituvchilarning qobilyatlarini aniqlashda bolaning biron narsani sust bilishi, unda qoilyatning yo'qligidan deb hisoblamasdan,juda ehtiyot bo'lishi va xushmuomalik bilan ish ko'rishi kerak . Bolalik davrida u yoki bu qobilyatlarning atrof-muhitdagi odamlar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik shu qobilyatlari tufayli jahonda munosibshon shuhrat qozonishga Musharraf bo'lgan juda ko'p allomalarining nomi dunyoga mashxur. Masalan Albert Eynshtyen(nisbiylik nazariyasи asoschisi), Nikolay Lobachevskiy(yangi geometriya asoschisi) D.I.Mendaleyev davriy jadval asoschisi va boshqalar o'qishiga qaraganda geniy olim bo'lib voyaga yetishida dohalarning bir ko'rinishi.

Har bir ongli inson qobilyati va zehni ustidan ilk yoshligidan boshlab , "yuragi chopgan " ish bilan shug'ullansa va undan qoniqish olib qobilyatini o'stirishga imkoniyat topib, yutuqlarga erishsa, biz uni iqtidorli deymiz. Iste'dod har tomonlama rivojlangan , nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobilyatdir. U tinimsiz mehnat , o'z qobilyatini takomillashtirib borish yo'lida barcha qiyinchiliklarni yengish , irodasi va butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo'lga kiitiladi. Talantlilikni yuqori bosqichi daholik deb ataladi. Ijtimoiy hayotda fan , adabiyot, san'at va shu kabi sohalarda prinsipial ravishda yangi biror narsa yaratgan kishilar daholar (geniylar) deb hisoblanadi. Genial kishilar insoniyat taraqqiyotida yo'l ko'rsatuvchi bosqichlar bo'lib xizmat qiladi, tarixiy shaxslarga aylanadi.

Ijodiy qobilyatlarini rivojlantirishning keng tarqalgan usuli bu bolaning ijodiy faoliyatiga qo'shilish .Kattalar ya'ni oila muhitida bolalar bilan iliq do'stona munosabat bo'lishi lozim. Bunda bola erkin bo'ladi , qiziquvchanligi ortadi. Bolaning ijodkorligi har bir so'z yaratish bilan shug'ullanganda namoyon bo'ladi. Ijodkorlikning boshlanishi bolaning o'yinlarida , tasviriy faoliyati, qurish yasash ishlarida o'zlari bilmagan holda ijodkorlikni namoyon etadi.

XULOSA. Bolalarning asosiy ishi o'qishdir . Shuning uchun bolaning ushbu ishini ijodiy qilish kerak. Agar maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy faoliyatga qo'shilsa, unda ular ongingin qiziquvchanligi, fikrlashning moslashuvchanligi, xotirasi, baholash qobilyati, oldindan ko'ra olish qobilyatini va rivojlangan intellektga ega bo'lgan odamga xos boshqa fazilatlarni rivojlantiradi. Ijodiy faoliyatga qo'yiladigan asosiy pedagogik talablardan biri maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olishdir.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maktab oiladan boshlanadi :Har uyda kitob lozim/ Abdug'afur Rasulovning umumiy taxriri ostida._ Tashkent: Yangi asr avlod, 2013.-240 bet

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

2. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi : Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma / S.M. Aripova S.X. Jalilova ; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi; O'rta maxsus , kasb-hunar ta'limi markazi.- Toshkent: "Faylasuflar" nashriyoti , 2017.-496bet.

3. Jahon bestsellerlari . Jon Kexo nashr lis.:AIN№ 002.20.07.2018y bosishga berilgan :13.10.2020 yil

4. Diqqat: CHalg'ituvchi dunyoda muvaffaqiyat sirlari/ Kel Nyuport, inglis tilidan Sojida Samandarovna tarjimasi. Toshkent: "Offset-peint" MCHJ, "Nihol"nashriyoti, 2020.230 bet